



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
DAVLAT XIZMATLARI AGENTLIGI

100060, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko‘chasi, 16A
el.pochta: info@davxizmat.uz, davxizmat@exat.uz
tel: (71) 207-00-66, www.davxizmat.uz

2021-yil 6-dekabr

№: 9/3-1-7-00712

**Davlat xizmatlari agentligining
Qoraqalpog‘iston Respublikasi,
viloyatlar va Toshkent shahar
boshqarmalari
(ro‘yxat bo‘yicha)**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-yanvardagi 70-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi qaroriga asosan Agentlikning hududiy boshqarmalariga 3 tadan, jami 42 ta xizmat avtotransport vositalarini byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan saqlashga limit ajratilgan.

Hozirgi kunda Agentlikning ro‘yxatda keltirilgan hududiy boshqarmalarida 2 ta avtotransport vositasidan foydalanib kelinayotganligini, hududlardagi tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari hamda FHDY organlarini moddiy-texnika vositalari, kanselyariya va xo‘jalik mollari bilan ta‘minlash, tovar-moddiy boyliklarni tashish, shuningdek, mobil (sayyor) xizmatlar hamda boshqa manzilli targ‘ibot tadbirlarni o‘tkazish bilan bog‘liq ishlar uchun boshqarmalarda uchinchi xizmat avtotransport vositasiga ehtiyoj mavjudligini inobatga olib, hududiy boshqarmalarning byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda 1 donadan “Damas” rusumli xizmat avtotransport vositasini xarid qilishga e‘tiroz bildirilmasligi ma‘lum qilinadi.

Ilova: 2 varaqda.

Direktor



Ijrochi: M.EGAMBERDIYEV
Tel.: +998712070066

U.Muxammadiyev